

DIZARTRIYA NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALARNI NUTQIY KAMCHILIKLARINI BARTARAF ETISHDA O'YIN FAOLIYATINING O'RNI

Azizova Gulbahor Sherali qizi

Norin tumani 22DMTT tashkiloti

Defektolog logoped

Toshkent Xalqaro Kimyo Universiteti 1 - bosqich magstri

Annotatsiya: Dizartriya — bu nutq mushaklarining harakatini buzilishi natijasida yuzaga keladigan holat bo'lib, bolalarning nutqini aniq va ravon ifodalashiga to'sqinlik qiladi. O'yin faoliyati, o'z navbatida, bolalarning rivojlanish jarayonida muhim rol o'ynaydi, chunki u nafaqat qiziqarli, balki ta'limiy vazifalarni ham bajaradi. O'yinlar orqali bolalar o'z nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, izchil fikrlash va kommunikativ qobiliyatlarini oshirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shuningdek, ota-onalar va tarbiyachilar uchun amaliy tavsiyalar beriladi. Natijada, o'yin faoliyatining dizartriyali bolalar uchun nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishda qanchalik muhim ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: dizartriya, nutq nuqsoni, bolalar, rivojlanish, o'yin faoliyati, nutq ko'nikmalari, amaliy tavsiya, terapiya, ota-onalar, o'yin orqali o'rganish, amaliy o'yinlar, nutqiy kamchiliklar.

Аннотация: Дизартрия – состояние, обусловленное нарушением движения речевых мышц, которое мешает детям четко и бегло выразить свою речь. Игровая деятельность, в свою очередь, играет важную роль в развитии детей, поскольку она не только интересна, но и познавательна. Благодаря играм у детей развиваются речевые навыки, связное мышление и коммуникативные способности. Также будут даны практические рекомендации для родителей и педагогов. В результате подчеркивается важное значение игровой деятельности в преодолении речевого дефицита у детей с дизартрией.

Ключевые слова: дизартрия, дефект речи, дети, развитие, игровая деятельность, речевые навыки, практические рекомендации, терапия, родители, обучение через игры, практические игры, дефекты речи.

Abstract: Dysarthria is a condition caused by impaired movement of speech muscles, which prevents children from expressing their speech clearly and fluently. Game activity, in turn, plays an important role in the development of children, because it is not only interesting, but also educational. Through games, children develop their speech skills, coherent thinking and communicative they will have the opportunity to improve their abilities. Also, practical recommendations for parents and educators will

be given. As a result, it is emphasized how important play activities are in overcoming speech deficits for children with dysarthria.

Key words: *dysarthria, speech defect, children, development, game activity, speech skills, practical recommendation, therapy, parents, learning through games, practical games, speech defects.*

Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so'zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o'zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo'l ochadi. Umuman shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.)ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o'rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo'yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala, ushbu holat shiddat bilan, sakrash tarzida ro'y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi. Dizartriya shikastlanganlar qanchalik miya o'qiga yaqin joylashganiga qarab falajlik shunchalik keng tarqalganligini ko'rish mumkin. Uzunchoq miya moddasi shikastlanganda(ensefalit, glial shish) jarangsiz bog'liq ovoz va so'zlarni "yutib" talaffuz qilish kuzatiladi. Bu albatta bulbar dizartriyaning og'ir ko'rinishi hisoblanadi. Va psevdobulbar dizartriyaning ayrim belgilari bilan kombinatsiyalashgan ko'rinishi hisoblanadi. Ko'p jihatdan bu nuqsonni bartaraf etish falajlikni tuzatishga qaratilgan massaj va artikulyatsion mashqlar hamda nafas mashqlarini yo'lga qo'yish lozim. Umuman olganda bunday bolalarda to'g'ri nafas olishni yo'lga qo'yish orqali nuqsonni ancha yumshatish mumkin. Dizartriyaning har bir turida har xil yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi. Kanallarni neyrofonetik tekshirish ishlari shuni ko'rsatadiki, alohida guruh muskullarining falajlanishi bo'shashgan falaji tovushlarni talaffuz qilishdagi ayrim buzilishlarga namoyon bo'ladi. Nutqi to'liq rivojlanmagani maktabgacha ta'lim guruhlarida uning o'rni juda baland, ko'p bolalarda qo'l barmoqlari harakatining yaqqol og'ishlari kuzatiladi: harakatlari noaniq, muvofiqlashtirilmagan, barmoqlar harakati qiyinlashgan. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning mayda motorikasini rivojlantirishni tizimli o'tkazib, har kuni 3-5 daqiqa vaqt sarflash kerak. Shu maqsadda turli xil o'yin va mashqlar qo'llash mumkin. Qo'l barmoqlarining nozik harakatlanishini takomillashtirish uchun kuldiradigan xalq she'rlarini o'qish davomida barmoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlardan samarali foydalanish mumkin. Bu o'yinlar qulay jo'shqin sharoit yaratadi, barmoqlar mashqini yaxshi ta'minlaydi, eshitish qobiliyatini rivojlantirishga va she'rlar mazmunini tushunishga yordam beradi nutq ritmini bilib olishga o'rgatadi. Jamiyat hayotida mehnat jarayonida bolalar kattalar mehnatiga taqlid qilish orqali o'ynaydilar, xuddi shu o'yin keyinchalik bolalarni mehnat faoliyatiga tayyorlashda muhim bosqich

bo'lib hisoblanishini asoslab, o'yinni obrazli, hayotni haqqoniy aks ettiruvchi jarayondir, degan edi V.G.Plexanov. P.F.Lesgaft «Bolaning dastlabki o'yini tevarak atrofdagi voqea hodisalarga taqlid kiladi, o'yin ijtimoiy voqelikni aks ettiradi», deb izohlagan edi. Buyuk psixolog D.V.Elkonin o'yinning kelib chiqishida yangi g'oyani ilgari suradi jamiyatning dastlabki taraqqiyotidayok bolaning kattalar hayoti va mehnatida ishtirok etishi bolalarning mehnat qilishlari uchun qulay o'yinchoq mehnat qurollari ishlab chiqilgan. O'yinchoq qurollar paydo bo'lishi natijasida rolli o'yinlar paydo bo'ladi. D.V.Elkonin kattalar mehnatida ishtirok etish orqali bolada mehnat qilishga intilish hissini uyg'otish zarurligi g'oyasini isbotlab bergan. Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishlarning vazifasi bo'ladi. 1.Tovushlarning to'g'ri talaffuzini o'rgatish; 2.Nutq kommunikatsiyasi rivojlantirish; 3.Motivatsiyani rivojlantirish, o'z-o'ziga ishonchni shakllantirish; 4.Differensial eshitish idrokini shakllantirish; 5.Ko'ruv-knestik tuyg'usini shakllantirish; 6. Korreksion ishni bosqichma-bosqich tashkil etish; 7. Murakkab buzilishlarda tovushlarni tushunarli holatga keltirish. Nutqiy nafasni rostdash uchun umumiy nafas gimnastikasini to'g'ri yo'lga qo'yish lozim. Nutqiy nafasni va tovushlarni korreksiya qilish 4 bosqichda amalga oshiriladi va individual yondashish tamoyiliga amal qilinsa, natija tezroq ko'zga tashlanadi. Artikulatsion mashqlar va gimnastika, motorikani rivojlantiruvchi mashqlar ham bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Dizartrik bolalar nutq a'zolari aksariyat falaj bo'lishini hisobga olsak, individual massaj ham katta ahamiyat kasb etadi. Oyin bolani har tomonlama har jihatdan togri tarbiyalashga qaratilgan faoliyatdir. Oyin insonni barkamol avlod sifatida rivojlantiradi. Oyinchoq bu narsaning oziga xos predmeti bolib, bolani maqsadini bilib oladi va shu maqsadga yonaltirishga komaklashadi. Koppina tadqiqodchi olimlar shuni isbotladiki, o'yinchoqlar orqali bolalar kelajakda o'zlari duch keladigan vaziyatlarga tushadi va ulardan qanday vaziyatlardan chiqishga o'rgatadi. Bola oyinchoqlar bilan tanishish, oynash orqali ular atrof-olam bilan tanishadi. Bolalar ozlari orasida boladigan munosabatlari, bir-birlariga muomila madaniyatlari, ozlari orasida xuddi kattalardek gaplashishlarini xoxlashadi. Oyinchoqlar orqali bola sizga, atrofdagilarga nima demoqchiligini tushuntira oladi. Ular o'yinchoqlar orqali borliq haqidagi bilimlarini boyitishadi. O'yinlar bilan bir qatorda qo'l barmoqlarining nozik harakatlari mashg'ulotlarida turli xil nutqsiz yo'llangan mashqlardan foydalanish mumkin.O'ng qo'l bosh barmog'ining uchi galma-galdan ko'rsatkich, o'rta, nomsiz va jinjiloq barmoqlarini uchiga tegadi ("barmoqchalar salomlashishadi") O'sha mashqni chap qo'l barmoqlari bilan bajariladi.

O'sha harakatlarni bir paytning o'zida chap va o'ng qo'l barmoqlari bilan qilinadi.

O'ng qo'l barmoqlari chap qo'l barmoqlariga tegadi galma galdan "salomlashishadi": oldin katta barmoq kattasi bilan, undan keyin ko'rsatkich barmoq ko'rsatkich bilan va boshqalar.

O'ng qo'l barmoqlarining hammasi bir vaqtda chap qo'l barmoqlari bilan "salomlashishadi".

O'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'ini tikka tutish va uni aylantirish ("ari").

O'sha harakatlarni chap qo'l barmoqlari bilan qilinadi.

O'sha harakatlarni bir vaqtda ikkala qo'lning ko'rsatkich barmoqlari bilan bajariladi ("arilar").

Stol ustida o'ng qo'lning ko'rsatkich va o'rta barmoqlari "yuguradilar" ("odamcha").

O'sha harakatlarni chap qo'l barmoqlari bilan qilinadi.

O'sha harakatlarni bir vaqtda ikkala qo'lning barmoqlari bilan bajariladi ("bolalar kim o'zarga yuguradilar"). O'ng qo'l barmoqlari chap qo'l barmoqlariga tegadi galma galdan "salomlashishadi": oldin katta barmoq kattasi bilan, undan keyin ko'rsatkich barmoq ko'rsatkich bilan va boshqalar.

O'ng qo'l barmoqlarining hammasi bir vaqtda chap qo'l barmoqlari bilan "salomlashishadi".

O'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'ini tikka tutish va uni aylantirish ("ari").

O'sha harakatlarni chap qo'l barmoqlari bilan qilinadi.

O'sha harakatlarni bir vaqtda ikkala qo'lning ko'rsatkich barmoqlari bilan bajariladi ("arilar").

Stol ustida o'ng qo'lning ko'rsatkich va o'rta barmoqlari "yuguradilar" ("odamcha").

O'sha harakatlarni chap qo'l barmoqlari bilan qilinadi.

O'sha harakatlarni bir vaqtda ikkala qo'lning barmoqlari bilan bajariladi ("bolalar kim o'zarga yuguradilar").

O'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'i va jinjiloqni tortiladi ("echki"). O'sha harakatlarni chap qo'l barmoqlari bilan bajariladi. O'sha harakatlarni bir vaqtda ikkala qo'lning barmoqlari bilan bajariladi ("echkichalar"). Ikkala qo'lning bosh va ko'rsatkich barmoqlaridan dumaloq yasab, ularni birlashtiriladi ("ko'zoynak"). O'ng qo'lning ko'rsatkich va o'rta barmoqlarini tepaga tortib, jinjiloq va nomsiz barmoq uchlarini bosh barmoq uchlarini bilan birlashtiriladi ("quyoncha"). O'sha mashqlarni chap qo'l barmoqlari bilan bajariladi. O'sha harakatlarni bir vaqtda ikkala qo'lning barmoqlari bilan bajariladi ("quyonlar"). Ikkala qo'lning ko'tarib kaftlarni o'ziga qaratish, barmoqlarni keng ochiladi ("daraxtlar"). Ko'tarilgan ikkala qo'lning kaftlarining orqasini o'ziga qaratib yuqoriga- pastga harakatlar qilinadi ("qushlar uchyapti, qanotlari qimirlatyapti"). Bosh barmoqdan boshlab, o'ng qo'l barmoqlarini galma-galdan bukiladi. Jinjiloqdan boshlab, barmoqlarni bukib o'sha harakatlarni bajariladi. Oldingi ikkala mashqni chap qo'l barmoqlari bilan bajariladi. O'ng qo'l barmoqlarini musht qilib bukib, bosh barmoqdan boshlab tekislab ochiladi. O'sha mashqlarni jinjiloqdan boshlab barmoqlarni tekislab ochishni bajariladi.

O'yinlar orqali bolalar bir-biri bilan muloqot qilishni o'rganadilar, bu esa nutq ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. O'yinlar davomida bolalar so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, yangi so'zlarni o'rganish va ularni kontekstda ishlatishni o'rganadilar. O'yinlar bolalarga o'z his-tuyg'ularini ifodalashda yordam beradi, bu esa nutqiy ifodalanish uchun muhimdir. O'yinlar bolalarning diqqatini jalb qiladi va ularni o'rganishga rag'batlantiradi, bu esa o'z navbatida nutq rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Guruhli o'yinlar orqali bolalar boshqalar bilan ishlashni, hamkorlik qilishni va ijtimoiy muloqot qilishni o'rganadilar. Xulosa qilib aytganda, dizartriya bilan og'rigan bolalarning nutqi kamchiliklarini bartaraf etishda o'yin faoliyati samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ota-onalar va tarbiyachilar o'yinlarni nutqni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan muhim vosita sifatida ko'rishlari kerak. O'yin jarayonida bolalarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratish, ularning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ham katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. Ayupova M.Yu. Logopediya. O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. T.: 2007 y. Belova N.I. Spetsialnaya doshkolnaya surdopedagogika. M. 1985 g.
2. Ermakov V.P, Yakunin G.A. Osnovoi tiflopedagogiki Moskva: Vlados 2000g.
3. Ignateva S.A. Blinkov Yu.A. Logopedicheskaya reabilitatsiya detey sotkloneniyami v razviti. Moskva: «Vladov». 2004 g.
4. Mo'minova L..R., Ayupova M.Yu. Logopediya. O'qituvchi nashriyoti. Toshkent 1993.
5. <https://fll.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/download/5884/4287/15044>
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/bolalar-nutqini-rivojlantirishning-o-yin-faoliyatidan-foydalanishning-asosiy-xususiyatlari>
7. http://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0062/62_i_20241209_124257_4.37.pdf
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/dizartriya-nutq-nuqsoniga-ega-bo-lgan-bolalarda-ovoz-va-nutqiy-nafasni-rivojlantirish/viewer>